

## INSON HUQUQLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYASI

**O'tashova Iroda Husniddin qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 2-kurs talabasi.

**E-mail:** [irodaotasheva@gmail.com](mailto:irodaotasheva@gmail.com)

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.15305244>**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada inson huquqlari tushunchasi, uning jamiyatdagi ahamiyati, shakllanish tarixi va zamonaviy hayotda amalga oshirilayotgan tamoyillar haqida so'z boradi. Shuningdek, inson huquqlari butun insoniyatning intilishlari, orzu-umidlarini o'ziga jamlagan keng qamrovli tushuncha ekanligi atroflicha yoritib o'tilgan. Maqola davomida inson huquqlari haqidagi sharq mutaffakir olimlarning qarashlari va fikirlari haqida alohida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Inson huquqlari, xalqaro standartlar, harbiy demokratiya, patriarxat, matriarxat, Cyrus-Cylinder, inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, inson huquqlari bo'yicha qo'mita.

## ТЕНДЕНЦИЯ РАЗВИТИЯ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА

**Аннотация.** В данной статье рассматривается понятие прав человека, его обсуждается в обществе, история становления и принципы реализуемые в современной жизни. Также было подробно разбяснено что права человека – это комплексная концепция, включающая в себя чаяния и надежды всего человечества. На протяжении всей статьи обсуждаются взгляды и мнения восточных мыслителей о правах человека.

**Ключевые слова:** права человека, международные стандарты, военная демократия, патриархат, матриархат, Цилиндр Сайруса, всеобщая декларация прав человека, комитет по правам человека.

## DEVELOPMENT TREND OF HUMAN RIGHTS

**Abstract.** In this article, the concept of human rights, its importance in society, history of formation and principles implemented in modern life are discussed. Also, human rights are the aspirations of all mankind. It is explained in detail that it is a comprehensive concept that includes dreams and hopes. Throughout the article, the views and opinions of Eastern thinkers about human rights are discussed.

**Key words:** Human rights, international standards, military democracy, patriarchy, matriarchy, Cyrus Cylinder, universal declaration of human rights, human rights committee.

### **Kirish.**

Ikkinchi jahon urishi yillariga kelib inson huquqlari bir davlat yuridiksiyasidan tashqariga chiqib boshladi. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urishininng daxshatli oqibatlari inson huquqlarini himoya qilish sohasida maxsus xalqaro-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish va ularni himoya qilishga qaratilgan xalqaro mexanizmlarni yaratishni xalqaro hamjamiyat oldiga asosiy vazifa qilib qo'ydi. "Inson huquqlari" tushunchasining o'zi, avvaldanoq insonning mohiyatini ochib beruvchi, uni inson sifatida o'zini tuta bilishini ko'rsatib beruvchi qadriyatlar bilan bog'liq bo'lgan tabiiy huquqning paydo bo'lishi bilan vujudga keladi. Inson huquqlari tushunchasini yuridik mazmunida "inson", "shaxs", "fuqaro" tushunchalaridan alohida ajratib bo'lmaydi.

"Inson" tushunchasi yaqindagina yuridik fanlarga kirgan bo'lib, u aynan inson huquqlarini ham milliy, ham xalqaro darajada tan olish bilan bog'liqdir. "Bizning fikrimizcha deydi,-professor A.X.Saidov,-"Umume'tirof etilgan inson huquqlari" atamasi xalqaro hujjatlar ahamiyatini "xalqaro standartlar" kam bo'lmagan darajada aks ettiradi", chunki ular davlatlararo darajada ishlab chiqiladi, davlatlararo hamkorlikni tartibga solishga mo'ljallanadi, o'z yuridiksiyasi doirasida inson huquqlariga hurmatni ta'minlab bera olmaydigan ahvolda qolgan, o'z xalqi va xalqaro hamjamiyat oldida inson huquqlariga rioya etish yuzasidan javobgarlikka tortiluvchi davlatga nisbatan yo'naltiradi<sup>1</sup>. Endigi navbatda inson huquqlariga aniqlik kiritadigan bo'lsak, inson huquqlari-bu insonning tug'ilishidan to vafot etguniga qadar butun hayoti davomida unga hamrohlik qiladigan huquq va erkinliklaridir.

Inson huquqlari yashash huquqi kabi eng asosiy huquqlardan tortib, munosib turmush tarzini ta'minlashga xizmat qiladigan so'z erkinligi, vijdon erkinligi, ta'lim olish, mehnat qilish, ijtimoiy ta'minot olish va shunga o'xshash iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy huquqlarimizni misol qilib keltirishimiz mumkin. Ushbu universal huquqlar millati, jinsi, tili, dini, irqi yoki etnik kelib chiqishi, ijtimoiy holatidan qat'iy nazar barcha uchun xos.

### **Ilmiy-nazariy qism**

Inson huquqlari to'g'risidagi g'oyalarning vujudga kelishi va inson qadrlanishiga doir tasavvurlarning vujudga kelishi yillar davomida shakllanib, hozirgi zamonaviy dunyoning taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Inson huquqlariga oid g'oyalar tarixiy rivojining uchta asosiy yo'nalishini ajratib ko'rsatish mumkin:

---

<sup>1</sup> Saidov A.X.Международное право прав человека: Учебное пособие/Отв.ред.акад.Б.Н.Топорнин.М.2002.- С.80.

Birinchisi, urug', jamoa, davlatdan ajralib chiqayotgan alohida shaxs sifatidagi, huquqning mustaqil subyekti sifatidagi inson g'oyasining shakllanishi.

Ikkinchisi, qadimgi davrlarda va o'rta asrlarda o'z huquqiy tizimning rivojlanishi, qonunlarning mujassamlashuvi va yuridik institutlarning qaror topishi.

Uchinchisi, huquqlar va qonunlarning universallik g'oyasi, ularning barcha odamlarga nisbatan beistisno qo'llanish g'oyasining ishlab chiqilishi<sup>2</sup>.

Inson huquqlari masalasini tahlil qilib borishda shuni alohida qayd etib borishimiz kerak, dastlab inson huquq va erkinliklarning asosiy manbalari tabiiy huquqdan paydo bo'lgan odat huquqi (harbiy demokratiya, jamoa o'zini o'zi boshqarish) asosida shakllangan an'ana va odatdan iborat bo'lib, u insonning biror urug'ga tegishliligi bilan bog'liq bo'lgan. Misol uchun Patriarxat jamiyatida oilada ota hukmronlik qilgan bo'lsada, oila a'zolarining huquqiy vakolat va imtiyozlarsiz oila mavjud bo'la olmagan. Matriarxat davridayoq ayol va erkaklar o'zlaridan nasl qoldirish orqali juft bo'lib yashash orqali huquq va majburiyatga ega bo'lish kerakligini tabiatning o'zi isbotlab bergan.

Ammo bu ongli ravishda amalga oshmay barchga jonzotlar singari nasl qoldirish tuyg'usi orqali amalga oshirilgan edi<sup>3</sup>. Inson huquqlarini tushinish uchun juda muhim bo'lgan insonlarning tabiiy tengligi g'oyasi qadimgi grek sofistlari va xitoylik mutaffakirlar tomonidan ko'p bora aytilgan. Fuqarolik erkinliklarining taraqqiyotiga ma'lum darajada rimliklar ham o'z hissalarini qo'shdilar, ya'ni ular hokimiyati bo'linish tushunchasini kiritdilar, shuningdek, tabiiy huquq g'oyasi va "huquq subyekti", "qonun oldida barchaning tengligi" "singari tushunchalar ham rimliklar tomonidan ishlab chiqildi. Shuni alohida qayd etishimiz lozimki, falsafiy g'oyalar qafimgi Gretsiya va Rim davlatlaridagi ijtimoiy sharoitlarga asoslangan qonunchilikda o'z aksini topmadi. Inson huquqlari, qullarni istisno qilgan holda, faqat quldorlarning imtiyozi sifatidagi qonun deb ko'rinar edi. Antik polisidagi insonning ajralmas huquqlari inson huquqlarining birinchi yuridik shakllari bo'lib, keyinchalik ular rim huquqida mustahkamlangan.

Miloddan avvalgi 539- yilda Buyuk Kir Bobil shahrini zabt etgach, umuman kutilmagan bir ish qiladi ya'ni uyiga qaytish uchun barcha qullarni ozod etadi. Bundan tashqari, u odamlarga o'z dinlarini tanlash kerak ekanligini e'lon qiladi. Uning bayonotlarini o'z ichiga olgan loydan yasalgan Cyrus-Cylinder -bu tarixdagi birinchi inson huquqlari deklaratsiyasi tuzilganligini ko'rishimiz mumkin.

<sup>2</sup> Saidov A. X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik- T.: Konsauditinform-Nashr, 2006.-B.24.

<sup>3</sup> Аристотель. Политика. Афинская политика.-М.1997.-С.36

Inson huquqlari yer yuzining barcha mintaqasida birdek tarqalmagan va himoya qilinmagan. Buning asosiy sababi sifatida har bir mintaqaning, davrning o'ziga yarasha odatlari va kelib chiqishi, mentaliteti jihatdan ajralib turishi, mamlakatning iqtisodiy ijtimoiy, siyosiy rivojlanishi kabi turli xil omillar sabab bo'lgan. Qadimgi dunyoda inson huquqlari go'yasining vujudga kelishi, uyg'onish davrida inson huquqlarining rivojlanishi, yangi davrda inson huquqlarining shakllanishi, Qadimgi Sharqda inson huquqlari va hattoki islom huquqida ham inson huquqlarining g'oyasining shakllanganligini ko'rishimiz mumkin. Inson huquqlari g'oyasini Ulug'bek, Navoiy, Bobur singari Sharqning buyuk mutafakkir olimlari, davlat va jamoat arboblari qarashida ham o'z aksini topgan. Bu siymolar turli davr va sharoitlarda yashagan bo'lishiga qaramay, insonning jamiyatdagi o'rni va roli masalalariga alohida e'tibor berganlar. Ularning har uchasi ham davlat ishlari bilan mashg'ul bo'lganlari uchun davlat bilan fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni, inson va jamiyatga doir masalalarni o'zlari yashagan davrlarning aniq shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda ifodalab berishga harakat qilganlar.

Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" asarida shoh Iskandarning mamlakatda amalga oshirgan adolatli tadbirlari orasida insonga g'amxo'rlik, uning sha'ni, qadr-qimmat, haq-huquqlarini himoya qilish chora-tadbirlari masalasi muhim o'rin egallagan bo'lsa, "Vaqqiy" asarida turli tabaqaga mansub kishilarning haq-huquqlarini himoya qilish, har bir insonning halol mehnat bilan shug'ullanishi zarurligi g'oyasi ilgari suriladi<sup>4</sup>. Yuqorida nomlari tilga olingan allomalarning asarlarida inson mehnatini ulug'lash bilan birga shug'ullanishi, uy-joyli bo'lishi singari haq-huquqlari to'g'risida ham qimmatli ma'lumotlar berilgan. Tarixdan ham ma'lumki, ayrim mamlakatlar va mintaqalarda olib borilgan jang-u jadallar, bosqinchilik urishlari natijasida fuqarolarning haq-huquqlari vahshiylarcha toptab kelingan. Bunday misollarni O'rta Osiyoda yashagan xalqlar va millatlar hayotidan ham ko'plab keltirish mumkin. Birgina mo'g'illar bosqini davrida O'rta Osiyoda yashagan xalqlarning huquqlari toptalganligini oddiy so'z bilan ifodalash qiyin. Masalan, mo'g'illar 1220-yilda Buxoroni bosib olib, 30 mingdan ortiq buxoroliklarning yostig'ini quritganlar, aholining qolgan qismini qullarga aylantirib, o'zlari ishg'ol qilgan boshqa yerlarga olib ketganlar<sup>5</sup>.

Islom ta'limotida inson huquqlari g'oyasini Qur'oni Karim va Hadisi Shariflarda insonning Alloh va shariatdagi haq-huquqlari inson foydalanishi zarur bo'lgan alohida huquqlar misolida ko'rsatib berilgan.

<sup>4</sup> Nazirov R "O'rta asr sharq allomalari" Navo.Toshkent:2011.-58 bet.

<sup>5</sup> Odilqoriyev H. T,Muxamed O'. X Saidov B.A.va boshqa Konstitutsiyaviy huquq darslik: -T.: Konsauditinform Nashr,2006.-76-b.

Masalan, Qur'oni Karimning "Baqara surasi"dagi 220-oyatda yetimlarning haqlari to'g'risida, 223-, 228-229-, 230-oyatlarida erkak va ayolning nikohga kirishi yoki nikohdan chiqish huquqi, "Oli imron surasi"ning 20-oyatida islom diniga e'tiqod qilish huquqi va insonning boshqa huquqlari shariat talablari asosida bayon qilingan. 256-oyatda islom dinining adolatliligi quydagicha bayon etilgan: "Dinda zo'rlash yo'q, zero. To'g'ri yo'l yanglish yo'ldan ajrim bo'ldi. Bas, kim shaytonni inkor etib, Allohga imon keltirsa, demak, u mustahkam halqani ushlabdi. Alloh eshituvchi va bilguvchidir"<sup>6</sup>. Inson huquqlarini shariat talablari asosida ko'rsatib berishga doir bunday yondashish hadislarida ham o'zining aniq ifodasini topgan. Har bir hadisda jamiyat hayotining alohida bir masalasiga doir talablari ilgari surilganligi uchun ham, ularda insonning xilma-xil haq-huquqlari ularning alohida huquqlari misolida bayon etilgan. Masalan, Imom Buxoriyning "Al-adab, al-mufrad (Adab durdonalari) asarida ota-ona haqini ado qilish, farzandiga ota-onasi oldidagi va ota-onaning farzandi oldidagi haq-huquqlari, ziyorat qilish, turar joyga ega bo'lish va boshqa shular singari haq-huquqlarining har biri alohida hadislarida berilganki, bunday holni hadislar to'g'risida yozilgan har bir asarda uchratish mumkin. Hadisi Shariflarda insonning qadr-qimmatini kamsitishga yo'l qo'ymaslik, uning sha'ni va obro'siga tajavuz qilmaslik, har kimning sir saqlashi, erkin fikr yuritishi, erkin so'zlashishi singari shaxsiy huquqlari bilan birga, uning mulkka ega bo'lishi, turar joyli bo'lishi va uning daxlsizligi singari turli xildagi ijtimoiy huquqlari ham shariat talablariga va qonunlariga muvofiq tarzda himoya qilinishi zarurligi o'z ifodasini topgan<sup>7</sup>.

Akademik V.Nersesyans esa inson huquqlari tarixi mavzusini rivojlantira borib, bu haqida shunday deydi." Huquq va davlat tarixiy rivojlantirishining har bir bosqichi uchun huquq subyekti bo'lmish inson konsepsiyasi va uning huquq hamda majburiyatlari, erkinligi va erksizligi haqidagi tasavvurlar xosdir.

Shu ma'noda, huquq tarixi, ayni mahalda, inson huquqlari to'g'risidagi ibtidoiy, cheklangan va rivojlanmagan tasavvurlardan tortib, hozirgi davrdagi tasavvurlarning shakllanishi va evolutsiyasi tarixi desak ham xato bo'lmaydi. Inson huquqlari-bu, eng avvalo, insonning ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasidagi huquq layoqatini va huquqiy subyekt ekanligini e'tirof etishdir.

<sup>6</sup> Batafsil ma'lumotlar uchun qarang: Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimasi. Abdulaziz Mansur tarjimasi va izohlari.-T.: Islom universiteti, 2001.

<sup>7</sup> Inson huquqlari.O'quv qo'llanma./X.Boboyev tahriri ostida.-T.:O'zbekiston, 1997.-B.46

Yoki, huquqshunos olim V.Nersesyansning ta’biri bilan aytganda, turli davrlardagi huquqiy layoqatning hajmi tegishli huquqiy tizimda, mazkur huquq tizmi subyektlarining qanchalik darajadagi huquqqa ega bo’lgan inson sifatida e’tirof etilishi bilan o’lchanib kelingan<sup>8</sup>.

### **Huquqiy asos**

Har bir o’zini rivojlangan deb hisoblaydigan davlat birinchidan, inson huquqlarini himoyasini to’laqonli ta’minlashni yo’lga qo’yishi lozim. Sababi ushbu davlatga tashrif buyirayotgan, xalqaro shartnomalar tuzishni niyat qilgan yoki investitsiya kiritmoqchi bo’lgan davlat birinchi navbatda uning qonunchiligiga nazar soladi va inson huquqlarining himoyasi qay darajada himoyaga olinganligini e’tiborga oladi. Xalqaro sohada inson huquqlari himoyasi-inson huquq va erkinliklarini davlatlar tomonidan amalda hayotga tadbiq etilishi bo’yicha davlatlarning majburiyatlarini belgilab beruvchi va mustahkamlovchi huquqiy normalar yig’indisi, shuningdek, ushbu huquq sohasi bo’yicha davlatlar o’z majburiyatlarini bajarishi ustidan xalqaro mexanizmi va alohida shaxsning huquqlarini himoya qilishdir<sup>9</sup>. Zamonaviy xalqaro hamjamiyat insonning tabiiy huquqlari g’oyasini huquqiy me’yoriy hujjatlar darajasida mustahkamlagan. Ular ichida 1948-yil 10-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi alohida o’rinda turadi ommaviy himoya qilinadigan asosiy inson huquqlarini belgilaydigan birinchi yuridik hujjat. Deklaratsiya 30 moddadan iborat bo’lishiga qaramay unda har bir insonning tabiiy va ajralmas huquq va erkinliklari e’tirof etilgan. Bundan tashqari Fuqarolik va siyosiy huquqlar to’g’risidagi xalqaro pakt (1966) va Iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy huquqlar to’g’risidagi xalqaro pakt (1966) birgalikda Inson huquqlari bo’yicha xalqaro billni tashkil qiladi. Bu xalqaro billda ham insoning asosiy huquq va erkinliklari e’tirof etilgan. Tadqiqotlardan birida ta’kidlab o’tilganidek, “1948-yildan so’ng qabul qilingan 90 dan ortiq milliy konstitutsiyalar o’zida deklaratsiya qoidalarini aks ettiradi va mazkur qoidalar uning ta’siri ostiga kiritilgan”<sup>10</sup>.

### **Sud organlari amaliyoti**

Fikirlarimizning isboti sifatida 1978-yilda tug’ilgan O’zbekiston Respublikasi fuqarosi Rayhon Xudoyberganova ayan o’zining buzilgan inson huquqlariga oid huquqlari bo’yicha BMT Inson huquqlari bo’yicha qo’mitaga murojaat qilgan. Muallifning ta’kidlashicha, u Fuqarolik va siyosiy huquqlar to’g’risidagi xalqaro paktning 18 - va 19-moddalarida belgilangan huquqlari O’zbekiston tomonidan buzilishidan jabr chekkan.

<sup>8</sup> Nersesyans V.S. Huquq falsafasi/Mas’ul moharrir A.X.Saidov.-T.: Adolat,2003.-B.113.

<sup>9</sup> Международное право. /Под.ред.Бекяшева К.А.: -М.Проспект.1999.-С.200

<sup>10</sup> Jayawic Kagata N.Hong Kong and the intenatihnal prhtectihn hf human Rights//Human Hong Kong,1992. P. 160.



Inson huquqlari bo'yicha qo'mita ishni ko'rib chiqish jarayonida, ushbu murojaatning Inson huquqlari bo'yicha qo'mita tartibotining 87-qoidasiga ko'ra, maqbul yoki maqbul emasligini tekshirib, uning barcha milliy sud instansiyalarida o'tganligini, ayni payta R.Xudoyberganovanning murojaatida keltirilgan masala boshqa xalqaro tartibot asosida ko'rib chiqilmayotganligi o'rganilgan. Qo'mita xulosasida ishtirokchi davlatga ya'ni O'zbekistonga R.Xudoyberganovanning buzilgan huquqlarini tiklash majburiyatini yuklagan. Ko'rib turganimizdek, bu xalqaro darjada inson huquqlarining qay darajada himoya qilinishining isboti desak bo'ladi. Xalqaro huquqda inson huquqlari himoyasining ahamiyati nima? - degan savol tug'ilishi mumkin. Ahamiyati shundaki, bir davlat hududida inson huquqlari lozim darajada ta'minlanmasa yoki davlatlar o'rtasidagi fuqarolarning huquqlari bilan bog'liq ziddiyatlar kelib chiqsa, xalqaro huquq doirasida hal qilinadi.

Inson huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirishda xalqaro hamkorlik katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Inson huquqlari bo'yicha II-Butunjahon konferensiyasi (Vena, 1993-y.) mamlakatlar uchun muhim voqelik va yo'l-yo'riq bo'ldi desak adashmagan bo'lamiz. Sababi uning yakuniy hujjatlarida inson huquqini rag'batlantirish va himoyalash ishida asosiy mas'uliyat davlatlar zimmasida ekanligi, ya'ni xalqaro institutlar va mexanizmlar yordamchi ro'l o'ynashi haqidagi qoida qayd etilgan. Har bir mamlakatdagi huquqni himoya qilish bilan bog'liq vaziyat xalqaro hamjamiyatni so'zsiz tashvishga solishini e'tirof etib, O'zbekiston, ham unga nisbatan inson huquqlari mavzusini siyosiy lashtirishga intilishlar va "ikki tomonlama standartlar" sityosatiga yo'l qo'ymasligi lozim, deb hisoblaydi va inson huquqlari bilan bog'liq masalalarni muhokama qilishda universallik, beg'arazlik, xolislik va bir xillikni ta'minlashga chaqiradi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, BMT Bosh Assambleyasining 61-sessiyasida qabul qilingan "Inson huquqlari bo'yicha teng huquqlilik va o'zaro hurmat qilish munosabatlarini rag'batlantirish" to'g'risidagi 61/166-sonli Rezolutsiyani qabul qilishda O'zbekiston tashabbuskorlardan biri bo'ldi, unda "ayrim mamlakatlarda inson huquqlari sohasidagi holat haqida siyosiy asoslanmagan va shoshma-shosharlik bilan qaror qabul qilishdan, bir-biriga qarshilik qilish uslublari, inson huquqlaridan siyosiy maqsadlarda foydalanish hollaridan voz kechish zarurligiga alohida urg'u berilgan hamda "inson huquqlari bo'yicha " xalqaro uchrashuvlarda siyosiy, iqtisodiy, va madaniy xilma-xillik mamlakatlar o'rtasida barqaror va do'stona munosabatlarni rivojlantirish hamda xalqaro uchrashuvlarda teng huquqlilik va o'zaro hurmat qilish" zarurligi e'tirof etilgan.

Insonning asosiy huquq va erkinliklarining ro'yxati va mazmuni inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, mazkur hujjat odatda dunyoning vijdoni, insoniyat ma'naviyatining etaloni deb nomlanadi.

Inson huquqlari bo'yicha deklaratsiya qabul qilinganiga 77 yil bo'lganiga qaramasdan, bugungi kungacha u davlatlar, shaxslar va nodavlat tashkilotlarining inson huquqlari sohasidagi faoliyatining asosi hisoblanadi. Mazkur hujjat dunyoning barcha davlatlari tomonidan ratifikatsiya qilingan.

Boshqa hech qaysi hujjat bunday sharafiga da'vo qila olmaydi. Bundan tashqari inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini barcha xalqlar va davlatlar bajarishga intilishi lozim, bundan muddao shuki, har bir inson va jamiyatning har bir tashkiloti doimo ushbu deklaratsiyani nazarda tutgan holda ma'rifat va ta'lim yo'li bilan bu huquq va erkinliklarni hurmat qilishga ko'maklashishi kerak.

Demokratik huquqiy davlat qurishning bosh sharti asosiy huquq va erkinliklarni rag'batlantirish va himoya qilish hamda jamiyatda har bir insonning huquqlarini kafolatlashning haqiqiy tizimini yaratish hisoblanadi, Inson huquqlari yer yuzida hayotning to'laqlonligini belgilaydi hamda millatlar madaniyatining ajralmas qismi, insoniyat ma'naviyati yuqori darajada ko'rinishi bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham, hozirgi zamon dunyosining ma'naviy qadriyatlari orasida umume'tirof etilgan inson huquqlari eng muhim o'rinlardan birini egallaydi.

## REFERENCES

1. Inson huquqlari: darslik. -T.: Adolat, 2013.
2. Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq: darslik. -T.: TDYU nashriyoti, 2023.- 952 bet.
3. Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq: darslik -T.: Kondauditinform-Nashr, 2006.
4. Nazirov R. "O'rta asr sharq allomalari" Navo. Toshkent: 2011.
5. Odilqoriyev. H.T. Muxamed. O'. X. Saidov B.A. va boshqa Konstitutsiyaviy darslik: -T.: Konsauditinform nashr, 2006.
6. Batafsil ma'lumotlar uchun qarang: Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimasi, Abdulaziz Mansur tarjimasi va izohlari. -T.: Islom universiteti. 2001.
7. International Human Rights, Rhona Smith Oxford, P. 440, 2014B



8. Jayawic Kagata N. Hong Kong and the international protection of human Rights// Human Rights, 1992. P.160.
9. Аристотел Политика Афинская политикаю-М.1997.
10. Международное право. Под ред. Бекяшева К.А.-М.: Проспект. 1999.-С 200.
11. Nersesyan V.S. Huquq falsafasi/ Mas'ul moharrir A.X. Saidov -T.: Adolat, 2003.
12. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt.
13. <http://www.un.org>